

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI





O‘RGANILAYOTGAN MINTAQA (POKISTON) ADABIYOTI

FANING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	– San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230000	– Tillar
Ta‘lim yo‘nalishlari:	60230100	– Filologiya va tillarni o‘qitish (sharq tillari bo‘yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  X.V. Mirzaxmedova

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi boshlig'i:  N.B. Xodjaeva

ARM boshlig'i:  M. Yuldasheva

Fan/modul kodi MA15618		O'quv yili 2027/2028	Semestr 5,6	ECTS - Kreditlar 8, 10	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 8,10	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	O'RGANILAYOTGAN MINTAQA (POKISTON) ADABIYOTI	216	324	540	
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – talabalarga urdu adabiyotining nazariy va amaliy asoslari haqida atroflicha bilim berish, ularda urdu tilida erkin va mustaqil mushohada yuritish, urdu adabiyoti nazariyasi va amaliyotiga oid bilimlarni o'zlashtirish orqali yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.</p> <p><i>Fanning vazifasi</i> - olti semestrda mo'ljallangan kurslar mobaynida talabalarda urdu tili adabiyotiga oid asosiy ma'lumotlarni berish bilan birga, tilning uslublari, adabiyotshunoslikka oid jihatlarini tahlil qilish, nazariy jihatdan anglab olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - yuqorida sanab o'tilgan sohalaridagi ilmiy tadqiqotlardan xabardor bo'lishi, ularni qo'llay bilishi; - urdu adabiyotining turli dolzarb masalalariga oid asarlarni tadqiq eta olishi; - hamda adabiy matnlar asosida bunday hodisalarni tahlil qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi. <p style="text-align: center;">Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Cambridge University (QS 4, THE 5) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://www.cambridgeinternational.org/Images/664551-2025-2026-syllabus.pdf</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">2.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu: Urdu tili va adabiyotining shakllanishi</p> <p>Hindistonga islom dinining kirib kelishi, mamalakatda yangi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlarning yuz berishi, har sohada yangilanishlar jarayonining kuchayishi, hind jamiyatida musulmon qatlamining vujudga kelishi, urdu tili va adabiyotining shakllanishi.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu: Ўрта asrlarda forsiyzabon adabiyotning shakllanishi (XIII-XV asrlar)</p>				

Ura asrlarda forsiyzabon adabiyotning vujudga kelishi (XIII-XV asr). mahalliy xalqning islom dinini qabul qilishi, shu asosda fors tilining keng yoyilishi va forsiyzabon adabiyotning vujudga kelishi.

3-mavzu: Amir Husrav Dehlaviy (1253 -1325)

Forsiyzabon adabiyotning yirik vakili **Amir Xusrav Dehlaviy (1253-1325)** ijodi. Hind musulmon madaniyatining o'zaro chatishuv jarayoni. Forsiy adabiyotning she'riy janrlari g'azal, ruboiy, masnaviy, qit'a kabilarning urdu adabiyotiga kirib kelishi. Hind musulmon madaniyati chatishuvining badiiy asarlarda ifodasi.

4-mavzu: Tasavvuf adabiyoti

XIV-XVII asrlardagi ijtimoiy, siyosiy vaziyat tavsifi. O'rta Osiyodan Hindistonga Naqshbandiya va Chishtiya tariqatlarining kirib kelishi va tasavvuf adabiyotining vujudga kelishi. Hind adabiyoti an'anaviy mavzularining tasavvuf adabiyoti mazmuniga kirib borishi, hind musulmon madaniyati sintezining tasavvuf adabiyotida aks etishi. Hind taavvuf adabiyotining o'ziga xos jihatlari.

5-mavzu: Urdu adabiyotining yetakchi maktablari

Bijapur, Golkonda, Dekan maktablari. Shu maktablarda ijod qilgan urdu adabiyoti rivojiga xissa qo'shgan adiblar, ularning asarlarining yetakchi mavzulari, obrazlar tizimi, til xususiyatlari.

6-mavzu: Bijapur sultonligi davri urdu (dakhniy) adabiyoti

XV-XVII asrlardagi Hindistondagi ijtimoiy siyosiy xayot. Yangi sultonliklarning shakllanishi. Bijapur sultonligi va bu saltanatda urdu adabiyotining rivoji. Ma'naviy xayotda tasavvuf g'oyalarning hukmronligi va tasavvuf adabiyoti tufayli urdu adabiyoti rivoji. Shoh Mironjiy, Burhoniddin Janam, Aminuddin A'lalari ijodi.

7-mavzu: Bahmaniy sultonligi davrida urdu adabiyoti

Janubiy Hindistonda dakhniy adabiyotining rivoji. Bahmaniy sultonligi (1347-1527) davrida urdu adabiyoti. Hindistonning Deccan mintaqasida turli madaniyatlarning aralashuvi orqali yangi adabiy shakllarning paydo bo'lishi. Turk, fors, arab va hindiy tillarining urdu tiliga ta'siri. Bahmaniy sultonlarida fors va arab tili o'rmini urdu tilining egallashi va urdu tilining ijod tiliga aylanishi.

8-mavzu: Odilshohlar davri urdu she'riyati

Odilshohlar davri she'riyati, uning rivoji va urdu adabiyotida tutgan o'rni. Odilshohlar davri (1490-1600)da Dekan mintaqasida urdu she'riyatining rivoji. She'riyatda sevgi, firoq, tabiat go'zalligi va ma'naviyat kabi mavzular ko'plab kuylandi.

9-mavzu: Qutbshohlar davri she'riyati

Qutbshohlar davri she'riyati, uning rivoji va urdu adabiyotida tutgan o'rni.

Qutbshohlar davri (1518-1687)da urdu adabiyotining Haydarobodda rivoji. She'riyatda ayniqsa, g'azal va ruboiy janrlari rivojlandi. Shoirlar she'riyati sevgi, firot, tabiat va ijtimoiy masalalarga bag'ishlandi.

10-mavzu: Vali Avrangobodiy va Siroj Avrangobodiy ijodi

Ushbu ikki taniqli shoirning XVI asr Dekan urdu adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi. Urdu adabiyotining birinchi taniqli shoirlaridan Vali Avrangobodiy (1660–1701) urdu she'riyatiga xalq tilini olib kirgan shoir. Siroj Avrangobodiy she'riyati, Uning muhabbat, tabiat go'zalligi va inson ruhiyatini tasvirlashga bag'ishlangan ma'naviy-axloqiy mavzulardagi she'rlari.

11-mavzu: Boburiylar davri urdu adabiyoti

Boburiylar (1526-1857) davri Hindistonda urdu adabiyoti rivojida muhim bir davr sifatida. Boburiylar imperiyasining urdu tili va adabiy an'analarning rivojlanishiga qo'shgan hissasi. Bu davrda, turk, fors va hind madaniyatlari o'zaro chatishuvining kuchayishi, yangi adabiy shakllar va yo'nalishlarning yuzaga keltishi. Boburiy sultonlar, jumladan, Akbar, Jahongir va Shohjahon tomonidan san'at va adabiyot rivojiga berikgan alohida e'tibori.

12-mavzu: Golkonda sultonligi urdu (dakhniy) adabiyoti

XVI asrda Golkonda sultonligining vujudga kelishi. Kutbshohlar sulolasining hukmronligi. Bu saltanatda urdu adabiyotining rivoji. Kutbshohlar ijodining urdu adabiyoti rivojidadagi ahamiyati, yangi she'riy janrlarning rivojlanishi, hind musulmon madaniyati sintezining kutbshohlar davrida kuchayishi.

13-mavzu: XVII asr urdu adabiyoti vakillari

XVII asr ijtimoiy siyosiy vaziyat va urdu adabiyoti. Shu davr shoirlaridan ibn Nishotiy, Fayz va Valiylar ijodi urdu she'riyatining muhim bir merosi sifatida. She'riyatda aks etgan yetakchi mavzular va obrazlar tizimi.

14-mavzu: Avadh rojaligida urdu adabiyotining rivoji

XVIII asr boshida avadx rojaligining vujudga kelish davridagi ijtimoiy siyosiy vaziyat, madaniy xayot. Savdo, So'z, Fig'on, Zohik kabi urdu adabiyotidagi yangi nomlar, fors adabiyotidagi yangi nomlarning ushbu rojalikda shakllana boshlashi. G'azallar va masnaviy janrlarining rivoji.

15-mavzu: Mirzo Sulaymon Shukuh saroyining shoirlari

Shayx Qalandar, Inshoolloxon va G'ulom Hamdamiylar she'riyati. Shu davr shoirlarining o'z davri muammolarini badiiy asarlarga ko'chirishi. She'riyatda badiiy mahorat, til va uslub masalalari.

16-mavzu: Vali Muhammad Nazir Akbarobodiy she'riyati

Nazirning urdu she'riyatiga yangi qahramon olib kirishi, she'riyatdagi mavzular miqyosini kengaytirishi, she'rlarida hazil, achchiq haqiqat va kinoyaning kuchliligi

17-mavzu: Urdu she'riyatining to'rt ustuni (XVIII asr)

Urdu adabiyotining to'rt ustuni deganda Mazxar Jonjonon, Mir Dard, Tobon va Savdolar ijodi nazarda tutiladi. Ularning ijodida urdu she'riyatida masnaviy, g'azal, tuyuq, ruboiy kabi janrlatining rivoji hamda o'z davrining dolzarb muammolarini she'riyatda aks etganini kuzatish mumkin.

18-mavzu: Mir Taqi Mir she'riyati

Mir Taqi Mir (1723-1810) she'riyati g'azal va marsiya janrlari bilan bog'liq. Mir Taqi Mir g'azallari tilining nafisligi va estetik go'zalligi. Mir asarlarining mavzusi sevgi va ijtimoiy masalalar. She'rlarining oddiyligi va chuqur ma'nodorligi.

19-mavzu: 1700-1850yy. urdu adabiyoti

Bu davr adiblarining urdu adabiyoti rivojiga xissa qo'shishdan yiroq bo'lgani. Davr shoirlarining xalq xayotidan, o'zini o'rab turgan jamiyat muammolaridan boxabar bo'lmaganligi tarixda qoladigan, nomi chiqqan adiblar va asarlar yaratilmaganligini ko'rsatdi. Tarixiy, ijtimoiy, siyosiy voqealar adabiyot rivojiga asos bo'la olmadi. Ayniqsa Avrangzeb xukmronshigi davrida.

20-mavzu: Mirzo Asadillo Xon G'olib she'riyati (1797-1869)

Mirza G'olibning urdu she'riyatidagi alohida o'rni. Ijodining sermazmun, xalqchilligi va adolat bayrog'ini ko'targan shoirligi. G'olibning g'azallarining mavzulari: sevgi, firoq, insoniy taqdiridan shikoyat, ma'naviyat va boshqalar.

21-mavzu: G'olibning nasriy merosi

G'olib xatlari. Xatlarda aks etgan G'olibning falsafiy qarashlari. G'olib xatlarining alohida ilmiy va ma'naviy, axloqiy ahamiyati.

22-mavzu: Urdu adabiyoti Lakhnau maktabi

Lakhnau maktabi vakillari Shayx G'ulom Ali Hamadoniy, Shayx Qalandarboxsh Jur'at, Xoja Haydar Ali Otash, Inshoalloh Xon Insho, Shayx Imombaxsh Nosix o'zining mistik va tasavvufiy she'rlari bilan tanilgan shoir. Uning asarlarida diniy va ma'naviy mavzular muhim o'rin tutadi. Ular urdu tilidagi tasavvufiy adabiyotning eng yirik vakillaridan biri sifatida, o'zining chuqur falsafiy va hissiy she'rlari bilan adabiyot tarixida alohida o'rin egallagan.

23-mavzu: Urdu adabiyotining Dehli maktabi (XIX asr)

She'riyatning ayrim janrlari – marsiya, noha va boshqalarning diniy tasavvurlar ta'sirida rivojlangani. Adabiyotda o'ziga xos badiiyatga qiziqish, xalq o'rtasida she'riyatga bo'lgan muhabbatning kuchayishi, Lakxnau va Dehli maktablari o'rtasidagi kurash kabi masalalar.

24-mavzu: Fort Villyam Kollej faoliyati

Hindistonda Ingliz tilida ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishda va mahalliy tillarda adabiyot va ilm-fan sohalarini rivojlantirishda Fort Villyam Kollejining

faoliyati (1800-y.)ning ahamiyati. Fort Villyam Kollejining Hindistonda zamonaviy adabiyotning rivojlanishiga ta'siri. Bu kollejda Mirzo G'olib, Siraj-ud-Din Ali Khan Arzu va Maulana Shibli Nu'moniy kabi adiblar o'z asarlarini yangi til va uslublarda yaratganlar. Kollejning Hindistonning madaniy va ilmiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.

25-mavzu: Aligarh harakati va Sayid Ahmad Xon faoliyati

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan va Hindistonda musulmonlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini targ'ib qilgan Aligarh harakati. Bu harakatning asoschisi Sayyid Ahmad Xon faoliyati. Musulmonlarning zamonaviy ta'lim olishida Aligarh harakatining o'ni. Aligarh Musulmon Kollejining tashkil etilishi.

26-mavzu: Ma'rifatparvarlik shoiri Mavlono Ozod ijodi

Ma'rifatparvarlikni jamiyatga olib kirgan Said Axmad Xon faoliyati ta'sirida ijod qilgan Mavlono Ozod (1829-1910) she'riyatida ma'rifatparvarlik g'oyalarning badiiy in'ikosini kuzatish mumkin. Shoirning butun ijodi va faoliyatining ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan singdirilganligi.

27-mavzu: Altaf Xusayn Holiy jodi

Altaf Xusayn Xoli (1837-1914) ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari. 60-90 yillarning badiiy nasrida Nazir Ahmadning urdu tilidagi "Kelinchak oynasi" axloqiy-tarbiyaviy mazmundagi ilk romanning vujudga kelishi, romanda ma'rifatparvarlik g'oyalarning shakllana boshlashi.

28-mavzu: Nazir Ahmad ijodi

Nazir Axmad (1836 -1912) ijodida hind xalqi xayotining ijtimoiy va ma'anaviy muammolari. Davr ruxinig Nazir Axmad asarlarida aks etishi. Mavzular xilma xilligi va xayotni realistik tasviridagi adibning mahorati.

29-mavzu: Ratannath Sarshar - romannavis

Ratannath Sarshar (1847-1902) romanlarining hindi nasri rivojida tutgan o'rni. Romanlarda ko'tarilgan yetakchi mavzular, obrazlar, til va uslub masalalari. Adibning "Fasanaye Azad" romani.

30-mavzu: Mirza Rusvaning ijtimoiy romanlari

Mirza Rusva (1858-1931)uning "Umraojan" romani. Romanda XIX asr oxiri hind jamiyatidagi ayollarning huquqi va taqdiri masalasi.

31-mavzu: Iqbol she'riyati

Iqbol (1877-1938) ijodida g'azal janri, urdu she'riyati rivojiga qo'shgan hissasi. Iqbol she'riyatining milliy ozodlik harakatiga ta'siri. Iqbol ijodida inson va olam konsepsiyasi. She'riyatining uslubi va so'z boyligi.

32-mavzu: Iqbol she'riyatida falsafiy qarashlar

Iqbol kuchli shoir va faylaso'f. Iqbol she'riyatida olam va ruh, ikki olam haqidagi nazariy va falsafiy qarashlarning she'riyatda aks etishi.

33-mavzu: Abdulhalim Sharar ijodi

Abdul Xalim Sharar (1860 -1926) ijodining etakchi janrlari va asarlarining mavzular ko'lami.

34-mavzu: Jo'sh Malihobodiy she 'riyati

Jo'sh Malihobodiy (XIX asr)ning she'riyatdagi merosi. Adib she'rlarida aks etgan hindu-musulmonlar birligi, vatanparvarlik hamda demokratiya masalalari, shuningdek, she'riyatida ishq, falsafa va tasavvufga oid g'oyalarning kuchliligi, shoirning qo'shiq va stsenariylar, ocherk va lug'atlar yaratgani.

35-mavzu: Shibli Nu'moniy ijodiy merosi

Shibli Nu'moniy (1857–1914) — Hindistonda tanilgan olim, tarixchi, adabiyotshunos, va mutafakkir. Adib o'zining nasriy asarlari bilan ham katta e'tibor qozongan. Shibli Nu'moniy nafaqat musulmonlar madaniyatini o'rganish, balki Islom va uning tarixini qayta tiklashga ham katta hissa qo'shgan. Shibli Nu'moniyning nasriy asarlari nafaqat o'z davrining ilmiy va diniy tafakkurini aks ettiradi, balki ular bugungi kunda ham omma uchun ilmiy va ma'naviy maqsadlarni anglashda qo'llaniladigan asosiy manbalardan biridir.

36-mavzu: Fayz Ahmad Fayz she'riyati

Fayz Ahmad Fayz (1911-1984) she'riyatining tematik va g'oyaviy jihatlari. Uning asosiy maqsadi jamiyatdagi adolatparvarlik, ozodlik va tenglikni targ'ib qilish, zulm va kamsitishlarga qarshi kurashish, shuningdek, adabiyot orqali ijtimoiy va siyosiy tizimni o'zgartirish edi. Harakat, xususan, Hindistonda mustamlaka davrida va undan keyingi yillarda keng tarqaldi, va uning yozuvchilari o'z asarlarida jamiyatni ijtimoiy adolat, mehnat va xalqning huquqlari nuqtai nazaridan tasvirlashga harakat qilgan.

37-mavzu: Roman-epopeya janri va Xo'ja Ahmad Abbos ijodi

O'z davrining faol ijodkori Ahmad Abbos (1914-1987) asarlarida hayotiy voqealar, milliy-ozodlik harakatlari, shaxsiyat roli, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, ijtimoiy muammolar, shaxsiy muammolar kabilarning yoritilishi. Mustamlakachilarga qarshi inqilobchilar harakati mavzusi adibning roman-epopeyalarida o'z aksini topgan.

38-mavzu: Zamonaviy urdu nasri Ahmad Nodim Qosimiy ijodi

Adibning (1916-2006) ijod yo'li, davr tavsifi, ijodida badiiy uslub masalasi, oltin muhr, hikoya yozilayapti nomli asarlari. Yozuvchining realistlik san'at metodidan foydalanishi. Asarlarida panjob dehqonlari, qashshoq hayot, qishloq aholisi, bolalar, oddiy insonlar, taraqqiyparvar realistlik adabiyot, adabiy faoliyat, uydan uyga, ko'p ma'noli.

39-mavzu: Taraqqiyparvar yozuvchilar harakati

Hindistonda Taraqqiyparvar yozuvchilar harakati 1930-yillarda boshlangan. Jamiyatdagi adolatsizlik, ozodlik va tenglikni targ'ib qilish, zulm va kamsitishlarga qarshi kurashish, shuningdek, adabiyot orqali ijtimoiy va siyosiy tizimni o'zgartirish g'oyalari ko'tarib chiqqan bu harakat adabiyotda ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni ilgari surgan muhim harakat bo'ldi. Harakat, xususan, Hindistonda mustamlaka davrida va undan keyingi yillarda keng tarqaldi, va uning yozuvchilari o'z asarlarida jamiyatni ijtimoiy adolat, mehnat va xalqning huquqlari nuqtai nazaridan tasvirlashga harakat qilgan.

40-mavzu: Premchand–urdu adabiyotida tanqidiy realizmning asoschisi

O'z davri muammolarini realistik tasvirlagan, badiiy asarlarida ularni mohirona o'quvchiga etkaza olgan, xalq dardini badiiy asarga ko'chirgan adib.

41-mavzu: Premchand asarlarida qishloq hayotining tasviri

Premchand hind qishog'ini asliyatini adabiyotga olib kirgani, uning barcha muammolarini hikoya va romanlaridagi obrazlar orqali, qishloq hayotiga oid syujetlar orqali qishloq hayotini ochiq oydin aks ettirgani, til uslubi orqali qishloqning o'ziga xos so'zlashuv tilini asarlarida aks etgani o'rganiladi.

42-mavzu: Krishan Chandar ijodi va tanqidiy realizmning rivojlanishi

Krishan Chandar hikoyalarida hind jamiyatiga tanqidiy munosabatning aks etgani. Hikoya va romanlardagi syujetlar, obrazlar va til vositasida o'zini tanqidiy fikrlarini bayon etgani o'rganiladi.

43-mavzu: Krishan Chandar - hikoyanavis

Krishan Chandarning urdu va hindi hikoyanavisligi rivojiga qo'shgan hissasi. Ikki tilda ijod qilgan K.Chandar nasriy merosida hind jamiyatining eng oddiy insonning xayoti, muammolari, sof hindi va urdu leksikasining keng qo'llanilganligi nasriy asarlari bilan tanishish orqali o'rganiladi.

44-mavzu: Urdu adabiyotida hikoya janri: Saadat Xasan Manto ijodi

Urdu hikoyanavisligi rivojiga katta hissa qo'shgan Mantoning xikoyalari o'ziga xos obrazlar, syujet va mavzular ko'lami bilan ajralib turishi adib hikoyalari bilan tanishish orqali o'rganiladi.

45-mavzu: Milliy ozodlik uchun kurash davri adabiyoti

Milliy ozodlik uchun kurash davri adabiyoti. Davr yozuvchilarining o'z asarlarida jamiyatni ijtimoiy adolat, mehnat va xalqning huquqlari nuqtai nazaridan tasvirlashga harakat qilganlari. Adiblar o'z asarlari xalqning muammolarini, ularning hayot tarzini, shuningdek, o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirgan.

46-mavzu: XX asr urdu she'riyati

G'azal janrining xususiyatlari. G'azal baytlarining mustaqilligi, lekin har bir

beytda qofiya va radifning mavjudligi. Misralarning bog'liqligi kuchli bo'lgan nazm shaklining aniq va qat'iy bo'lishi, har bir misraning bir-biriga bog'lanishi, g'oya umumiyliги nazmning g'azaldan farqi sifatida o'rganish.

47-mavzu: 20-asr g'azalnavis shoirlari

20-asrning yozuvchilari o'z asarlarida jamiyatni ijtimoiy adolat, mehnat va xalqning huquqlari nuqtai nazaridan tasvirlashga harakat qilgan. Bu davr yozuvchilari o'z asarlarida qashshoqlik, kamsitish, notenglik va mehnatchi sinfning huquqlarini ko'rsatishgan. Ular o'z she'rlarida va hikoyalarida odamlarning muammolarini, ularning hayotini, shuningdek, o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojlarini aks ettirgan.

48-mavzu: Jigar Murodobodiy ijodi

Bu shoirning asosiy maqsadi jamiyatdagi adolatparvarlik, ozodlik va tenglikni targ'ib qilish, zulum va kamsitishlarga qarshi kurashish, shuningdek, adabiyot orqali ijtimoiy va siyosiy tizimni o'zgartirish edi. Harakat, xususan, Hindistonda mustamlaka davrida va undan keyingi yillarda keng tarqaldi, va uning yozuvchilari o'z asarlarida jamiyatni ijtimoiy adolat, mehnat va xalqning huquqlari nuqtai nazaridan tasvirlashga harakat qilgan.

49-mavzu: Majruh Sultonpurii ijodi fa faoliyati

Majruh Sultonpuriiyning she'riyatida insonparvarlik, ma'naviyat, va adolat kabi muhim mavzular ilgari surilgan. Uning asarlari hind va musulmon jamiyatidagi ijtimoiy o'zgarishlarni yoritishga qaratilgan bo'lib, u o'z she'riyatida an'anaviy va zamonaviy elementlarni uyg'unlashtirishga intilgan. U o'zining she'riyatini faqat estetik jihatdan emas, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham o'zgartirishga xizmat qilgan. Uning asarlari adabiyot tarixida o'ziga xos iz qoldirgan va u Hindistondagi urdu adabiyotining rivojida muhim rol o'ynagan.

50-mavzu: Hafiz Jalandhriy g'azallari

Hafiz Jalandhriy — o'z davrining mashhur urdu shoirlaridan biri bo'lib, uning g'azallari tasavvuf va muhabbat, shuningdek, insonning ruhiy izlanishlarini aks ettirgan. Uning g'azallari Hindistonda keng tarqalgan va zamonaviy urdu she'riyatining eng mashhur namunalari hisoblanadi. Hafiz Jalandhriy ko'plab g'azallarda ilohiy muhabbat va dunyo hayotining noaniqliklarini tasvirlagan.

51-mavzu: Shakil Badayuniy

Shakil Badayuniyning tasavvufiy g'azallari, ning she'rlarida Alloh bilan bog'lanish, uning rahmatini qidirish va ichki huzurga erishish mavzulari doimo takrorlanadi. G'azallarining asosiy mavzularidan biri — muhabbat, ayniqsa, ishqning mukammal va ilohiy shakllarini tasvirlashdir.

52-mavzu: Nosir Kozimiy she'riyati

Shoirning she'rlari ko'pincha insonning ruhiy holatini, ichki izlanishlarini va manaviy yuksalishni aks ettiradi. Nosir Kozimiy o'z g'azallarida ko'pincha insonni

dunyoviy xohishlardan voz kechishga chaqiradi va ilohiy yo'lni tanlashga undaydi. Uning g'azallarida **qofiya** (so'zlar o'xshashligi) va **radif** (oxirgi so'zning takrorlanishi) kutilganidek aniq va jozibali bo'lib, ularning ohangi va ritmi g'azallariga go'zallik va ma'no quvvati bag'ishlaydi.

53-mavzu: Munir Niyaziy ijodi

Shoirming g'azallari nafaqat o'z davrida, balki keyingi avlodlar orasida ham katta ta'sir o'tkazgan. Uning nafaqat urdu adabiyotida, balki forsiy, hindi va boshqa Sharq adabiyotlarida ham ta'siri sezilgan. Uning she'rlari o'zining chiroyli va ilmiy ifodasi bilan urdu she'riyatini yangi bosqichga olib chiqqan. G'azallari o'zining chuqur ma'no, tasavvufiy ruhiyat va mukammal ifodasi bilan urdu adabiyotining yuksak namunalari sifatida qadrlanadi.

54-mavzu: Kayfiy Azmiy she'riy merosi

Kayfiy Azmiy — urdu adabiyotining mashhur shoiri bo'lib, har biri o'ziga xos she'riyat uslubi va mazmuni bilan tanilgan. Kayfiy Azmiy — Hindistonda tug'ilgan urdu shoiridir. U g'azallari va nazmlarida muhabbat, ijtimoiy va ma'naviy masalalarni ham qamrab olgan. Kayfiy Azmiy urdu she'riyatining o'zgaruvchan davrida o'zining yangicha yondashuvi bilan tanilgan.

55-mavzu: Bashir Badar ijodi

Uning she'rlari ko'pincha insonning ruhiy izlanishlari, muhabbat va ijtimoiy haqiqatlarni o'z ichiga oladi. Shoir g'azallarida hayotning noaniqliklari va insonning ichki kechinmalari tasvirlanadi. Asarlari uslubi odatda sodda, lekin ma'noda chuqur. Ular o'z she'rlarida hissiy va falsafiy g'oyalarni o'qiruvchi yuragiga yaqin tarzda ifodalagan.

56-mavzu: Ahmad Faraz ijodi

Bu shoir urdu adabiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynagan shoiridir. Uning asarlari bugungi kunda ham o'zining estetik va ma'naviy qiymatini yo'qotmagan. Shoir ham urdu adabiyotida o'z izlarini qoldirgan va o'zining uslubi, mavzulari va g'oyalari nisbatan yangi bir qarashni taqdim etgan.

57-mavzu: Urdu nazmi

Urdu adabiyotining eng muhim janrlaridan biri bo'lib, unda shoir o'z g'oyalari va his-tuyg'ularini nazm shaklida, ya'ni she'riy uslubda ifodalaydi. Birinchi navbatda, urdu nazmi o'zining shakli va mazmunini forsiy va arab she'riyatidan olgan, lekin o'zining individual uslubi va mavzulari bilan alohida ajralib turdi. Mir Taqi Mir, Mirzo G'olib kabi shoirlar urdu nazmining asoschilaridan hisoblanadi.

58-mavzu: Ismoil Mirathiy. N.M.Rashid

Mazkur shoirlarning she'rlari ko'pincha ishq, tasavvuf, ma'naviyat va hayotning ma'nosi kabi mavzularni o'z ichiga oladi. Ular o'zining she'rlari orqali insonni ma'naviy izlanishga, ozlikni anglashga chaqiradi. She'rlari odatda sof va ajoyib poetik

ifodalar bilan ajralib turadi. Uning she'rlari tasavvufiy va diniy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, nafaqat o'z zamonasining, balki keyingi avlodlarning ham ma'naviy ehtiyojlarini qondirgan.

59-mavzu: Axtar Shiraniy ijodi

Bu shoirlar she'riyatida insonparvarlik, ma'naviyat, va adolat kabi muhim mavzular ilgari surilgan. Uning asarlari hind va musulmon jamiyatidagi ijtimoiy o'zgarishlarni yoritishga qaratilgan bo'lib, u o'z she'riyatida an'anaviy va zamonaviy elementlarni uyg'unlashtirishga intilgan. U o'zining she'riyatini faqat estetik jihatdan emas, balki ma'naviy va ijtimoiy jihatdan ham o'zgartirishga xizmat qilgan.

60-mavzu: Esse. Maolaviy Abdul Haq

Esse janri yozuvchining shaxsiy fikrlarini, his-tuyg'ularini va tajribalari orqali o'quvchiga yetkazadigan, fikr yuritishga undovchi adabiy shakldir. Esse o'zining oddiyligi va erkin shakli bilan yozuvchi uchun muhim bir vosita bo'lib, o'quvchiga yangi g'oyalarni kiritish, ijtimoiy va madaniy masalalar haqida o'ylash imkonini yaratadi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

“O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) adabiyoti (urdu adabiyoti)” fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- She'riy janrlar - hamd, na't, g'azal, qasida va ruboiy.
- She'riy janrlar ta'rifi va o'ziga xos jihatlari.
- Urdu mumtoz she'riyati. Janubiy Hindistonda (Dekanda) g'azal janrining rivoji.
- Lakhnou maktabi vakillari - Shayx G'ulom Ali Hamadoniy.
- Prem Chand romanlari badiiyati.
- Nazir Akbarobodiy she'riyati.
- Mir Taqiy Mir she'riy merosi
- G'olib g'azallari xususiyati.
- Mir Anis va Mirzo Dabir marsiyanavisligi.
- Krishan Chandr hikoyalarining jihatlari.
- Mir Amman Dehlaviy dostoni - „Bog'u bahor“ dagi asosiy badiiy g'oya.
- Munshiy Prem Chand hikoyanavisligi. „Vardat“. R.S. Bediy. „Lajvantiy“.
- Saodat Hasan Manto. „Phande“ asarlari badiiy tahlili.
- Intizor Husaynning „Kachhuye“ hikoyasida badiiy g'oya.
- 20-asr g'azalnavis shoirlari - Hasrat Mohaniy va Yas Yagona ijodi.
- F.Ahmad Fayz g'azallarida vatan madhi.
- R.Singh Bediy hikoyanavisligi.
- Shibli Nu'moniy she'rlari xususiyatlari.
- Alloma Iqbol she'riyatida falsafiy qarashlar.
- Ahmad Nadim Qosimiy ijodining badiiyati.
- Sar Sayyad. „Mazamine Sar Sayyad“ asari haqida olimlarning fikrlari.
- Shibliy Nu'moniy, Sayyad Sulaymon Nadaviy va G'ulom Rasul Mehr qalamiga

mansub biografiya asarlari.

- A.H.Holiyning "Yadgare G'alib" asari haqida olimlar fikrlari.
- Maktub va safarnoma janrlari . Farqli va o'ziga xos jihatlarlari.

IV. Mustaqil ta'lim*

IV.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilish, shuningdek, qisman joriy, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

"O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) adabiyoti (urdu adabiyoti)" fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qasida janrining rivoji. Qutbshohlar davri.
 2. Mir Hasan masnaviyarlari xususiyati.
 3. Mir Anis va Mirzo Dabir marsiyana xususiyati.
 4. Nasriy janrlar - doston, roman, hikoya janrlari. Farqli jihatlarlari.
 5. Mir Amman Dehlaviy dostoni - „Bog'u bahor“ dagi asosiy badiiy g'oya.
 6. Munshiy Prem Chand hikoyanavisligi. „Vardat“. R.S. Bedy. "Lajvantiy".
 7. Saodat Hasan Manto. „Phande“ asarlari badiiy tahlili.
 8. Intizor Husaynning "Kachhuye" hikoyasida badiiy g'oya.
 9. 20-asr g'azalnavis shoirlari - Hasrat Mohaniy va Yas Yagona ijodi.
 10. F. Ahmad Fayz g'azallarida vatan madhi.
 11. Urdu nazmining ta'rifi va badiiyati.
 12. Shibli Nu'moniy she'rlari xususiyatlari.
 13. Alloma Iqbol she'riyatida falsafiy qarashlar.
 14. Xurshid-ul Islom. Vazir Og'a. Shahriyor ijodining badiiyati.
 15. Sar Sayyad. „Mazamine Sar Sayyad“ asari haqida olimlarning fikrlari.
 16. Shibliy Nu'moniy, Sayyad Sulaymon Nadaviy va G'ulom Rasul Mehr qalamiga mansub biografiya asarlari.
 17. A.H.Holiyning "Yadgare G'alib" asari haqida olimlar fikrlari.
- * *Izoh: Mustaqil ta'lim mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.*

IV.2. "O'rganilayotgan mintaqa (mamlakat) adabiyoti (urdu adabiyoti)" fanidan kurs ishlarining namunaviy mavzulari:

1. Mir Hasan masnaviyarlari xususiyati.
2. Nasriy janrlar - doston, roman, hikoya janrlari. Farqli jihatlarlari.
3. Munshiy Prem Chand hikoyanavisligi. „Vardat“. R.S. Bedy. "Lajvantiy".
4. Saodat Hasan Manto. „Phande“ asarlari badiiy tahlili.
5. Intizor Husaynning "Kachhuye" hikoyasida badiiy g'oya.
6. F. Ahmad Fayz g'azallarida vatan madhi.
7. Shibli Nu'moniy she'rlari xususiyatlari.

	<p>8. Alloma Iqbol she'riyatida falsafiy qarashlar. <i>*Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzusi yuqoridagi na'munalarga qo'shimcha ravishda fan o'qituvchisi va talabaning xohish-istagiga ko'ra fan doirasida o'zgartirilishi mumkin.</i></p>
3.	<p><i>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - urdu tilida yaratilgan badiiy asar ustida ishlash, matnning uslubiy jihatlarini va xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; - matnda qo'llanilgan lug'at tarkibi, lug'at tarkibining genetik asoslari; so'zlarning ma'no xususiyatlari tadqiqi; - matnda qo'llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining o'ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko'rinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish bilishi va ulardan foydalana olishi; - matn tilining fonetik asoslari, fonetik tizimning davriylik masalasi; matnda qo'llanilgan lug'at tarkibi, lug'at tarkibining genetik asoslari; so'zlarning ma'no xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik tadqiqi; so'z yasalishi masalalari yuzasidan ko'nikmalariga ega bo'lishi; - matnning sintaktik xususiyatlari; matnda qo'llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining o'ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko'rinishi; matn talabi bilan til uslublarning tanlanishini tushuna olish malakasiga ega bo'lishi kerak.
4.	<p style="text-align: center;">V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
	<p style="text-align: center;">VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar:</p> <p>1. M. Abdurahmonova (Prof. X.M. Ikromiddin bilan hammualliflikda) Urdu she'riyati (Taniqli urdu shoirlarining hayoti va ijodi) . Brown Book</p>

ardoshu'ari (namayنده شعر اءاكاعارف اوران كى شاعرى، براؤن بكة پبلكيشنز، نئى nashriyoti, Yangi Dehli. 2019

(موم مولف پروفيسر خواجہ اکرام الدين) ۲۰۱۹ء، دہلی، (urduda); (Urdu shairi. Numayanda shuara ka taruf aur unki shairi, Braun book pablikeyshenz, Nai Dilli, 2019).

2. Muhibova U.U., Abdurahmonova M.H. Boburiylar davri adabiyoti (hindiy va urdu tillaridagi adabiy meros). – Toshkent, 2018.

3. نالاب كى منتخاب غزليات (urduda); (G'alib ki muntaxab g'azleN). (G'olibning tanlangan g'azallari). Muhayyo Abdurahmonova (prof.Chander Shekhar bilan hammualliflikda). "Zamin", T., 2021

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2024.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.

4. مختصر تاريخ ادب اردو، ڈاکٹر سيد ايمجاز حسين اردو کتاب گھر، دہلی، ۲۰۰۵ء. (Muxtasar tarix adabe urdu. Dr. Sayyad E'jaz Huseyn. Urdu kitab ghar, Dehli, 2005. (Dr. Sayyad E'jaz Huseyn. Urdu adabiyotining muxtasar tarixi. Urdu kitab ghar, Dehli. 2005)

5. اصناف ادب اردو، عطا الرحمن نوری، رحمانی پبلیکيشنز، مہاراشٹر، ۲۰۱۶ء. (Ata-ur Rehman Nuri. Asnafa adabe urdu. Rehmani pablikeyshanz, Mahaarashtr, 2016); (Ato-ur Rahmon. Urdu adabiyoti janrlari. Rahmoniy nashriyoti, Maharashtra, 2016).

Scopusdan maqolalar

1. Akhmedova D.R., Mubarakova D.A., Khodjaeva N.B., Yunusova N.K., Umarova M.A., Khamidova V.S. Development of distance education in XXI century: Challanges and opportunities // *Educational Administration Theory and Practice*, Vol 30 (6), 869-873,

Doi: 10.53555/kuey.v30i6.5373

<https://www.scopus.com/soureceid/21101039079>

Axborot manbalari:

<http://www.philology.ru/>

<http://www.sil.org/>

<http://vazvkoznanie.ru/>

<http://www.lingling.ru/>

[www. omniglot.com](http://www.omniglot.com)

<http://www.linguistlist.org/>

7. Fanning o'quv dasturi "Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti" oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" yilidagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining

	2025 yil "28" iyundagi 11 - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8.	<p style="text-align: center;">Fan/modul uchun mas'ul:</p> <p>Abdurahmonova M.H. – Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi professori, filologiya fanlari nomzodi</p>
9.	<p style="text-align: center;">Taqrizchilar:</p> <p>U.U. Muhibova – TDSHU Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi filologiya fanlari doktori, professor;</p> <p>E.Moydinova – O'zDJTU, Ikkinchi chet tili kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent v.b.</p>

Self